

JAMIYATDA NOGIRONLIKKA BO‘LGAN IJTIMOIIY STEREOTIPLARNI  
BARTARAF ETISHNING ILMIY ASOSLARI

Xolmurodov G‘ulom O‘tkir og‘li

*katta o‘qituvchi*

Jamolova Ozoda Oybek qizi

*O‘zbekiston Milliy Universiteti,*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Ijtimoiy ish yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan jamiyatda mavjud bo‘lgan stereotiplar va ularni yo‘qotish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar ham jamiyatning faol va foydali a‘zolari ekanligi, ularning imkoniyatlarini to‘g‘ri tushunish va qadrlash zarurligi ta‘kidlanadi. Shuningdek, bunday insonlarga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash va teng imkoniyat yaratishning ilmiy asoslari ko‘rsatib o‘tiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *nogironlik, stereotip, ijtimoiy ong, integratsiya, inklyuziya, ijtimoiy adolat, ijobiy munosabat.*

SCIENTIFIC BASES FOR ELIMINATING SOCIAL STEREOTYPES  
ABOUT DISABILITY IN SOCIETY

**Annotation:** *The article discusses the stereotypes that exist in society regarding people with disabilities and ways to eliminate them. It emphasizes that people with disabilities are also active and useful members of society, and the need to correctly understand and appreciate their capabilities. It also outlines the scientific foundations for forming a positive attitude towards such people, supporting them, and creating equal opportunities.*

**Keywords:** *disability, stereotype, social consciousness, integration, inclusion, social justice, positive attitude.*

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ УСТРАНЕНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СТЕРЕОТИПОВ  
ОБ ИНВАЛИДНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

**Аннотация:** *В статье рассматриваются существующие в обществе стереотипы в отношении людей с ограниченными возможностями здоровья и пути их преодоления. Подчеркивается, что люди с ограниченными возможностями здоровья также являются активными и полезными членами общества, и необходимость правильного понимания и оценки их возможностей. Также*

*излагаются научные основы формирования позитивного отношения к таким людям, их поддержки и создания равных возможностей.*

**Ключевые слова:** *инвалидность, стереотип, общественное сознание, интеграция, инклюзивность, социальная справедливость, позитивный настрой.*

**Nogironlik, invalidlik** — kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma’lum muddat mehnat qobiliyatini yo‘qotish. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi. O‘zbekistonda Nogironlik Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan belgilanadi.

TMEK bu-Tibbiy mehnat-ekspert komissiyasi nogironlik masalalarida eng asosiy tashkilotlardan biri bo‘lib ,nogironlikni aniqlah va baholash bilan shug‘ullanadigan rasmiy davlat organidir.

Boshqacha qilib aytganda nogironlik bu- o‘zgalar parvarishiga muhtoj, nogironligi bo‘lgan shaxslar ko‘p hollarda boshqalarning yordamiga muhtoj bo‘ladi bunday holatda ularga atrofidagi shaxslardan o‘zlariga yetarli darajada e’tibor mehr-muhabbat ololmaganligi sababli jamiyatga qo‘shila olmaydi.

Bu o‘z-o‘zidan nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvining pastligiga olib keladi ushbu konfliktni yo‘qotish maqsadida inklyuziv ta’lim tizimini olsak bo‘ladi inklyuziv ta’lim tizimi bu-nogironligi bor bo‘lgan shaxslar va sog‘ligida muammosi bor bo‘lgan bolalar va yoshlarning boshqalar bilan teng imkoniyatlardan foydalangan holda ta’lim olishidir.

Hozirgi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida qonunlar ishlab chiqilgan.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 11-noyabrda "O‘zRning nogironlarni reabilitatsiya qilish borasidagi chora-tadbirlari Davlat dasturi to‘g‘risida" qaror qabul qildi. Mazkur qarorning ijrosi nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlari sistemasi (Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasb bo‘yicha reabilitatsiya qilish milliy markazi, Tayanch-harakat sistemasi kasalliklarida nogironlar reabilitatsiya markazi va 10 ta umumiy tipdagi hududiy reabilitatsiya markazlari) tashkil etildi. Bular joylardagi TMEKlar bilan hamkorlikda nogironlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

O‘zR qonunchiligida Nogironlikning quyidagi sabablari nazarda tutiladi: umumiy kasalliklar (ish bilan bog‘liq bo‘lmagan) oqibatidagi nogironlik; turmushdagi baxtsiz hodisalar natijasida shikastlanish oqibatida yuz bergan nogironlik; ishlab chiqarishdagi jarohatlar va kasb kasalligiga duchor bo‘lish natijasidagi nogironlik; kasb kasalligiga chalinish tufayli yuz bergan nogironlik; O‘zbekistonni himoya qilish yoki boshqacha tarzda harbiy burchni bajarish paytida ro‘y bergan Nogironlik; harbiy burchni bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan harbiy xizmatni o‘tash davridagi Nogironlik. Bu boradagi tartib-qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-noyabrdagi 317-son qarori

# “DUNYO TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG'OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-May, 2026-yil

bilan tasdiqlangan "Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyalari to'g'risida nizom"da ko'rsatib o'tilgan.

Nogironlikka oid stereotiplar odatda noxolis, salbiy va noto'g'ri qarashlarga asoslangan bo'ladi. Ular orasida quyidagilar keng tarqalgan: nogiron odamlar achinarli, nochor, bolalardek yoki "bechora" deb qaraladi, nogironlik uchun la'natlanadi yoki jazolanadi, ularning ahvoli doim azobli deb hisoblanadi, ko'pincha nogironlar ota-onalari bilan yoki maxsus muassasada yashashi kerak, degan noto'g'ri fikrlar mavjud. Bunday stereotiplar nogironlar haqidagi noxolis munosabatlarni, ijtimoiy kamsitishni kuchaytiradi va ularning hayot sifatini yomonlashtiradi. Shuningdek, nogironlik qobiliyatsizlik yoki me'yordan chetga chiqish sifatida noto'g'ri qabul qilinadi. Nogironlar esa turli-guruhlarga mansub bo'lib, har bir insonning qobiliyatlari va ehtiyojlari farq qiladi, ular boshqalardan kam bo'lmagan yoki to'g'ri qo'llab-quvvatlansa, yaxshiroq ishlashlari mumkin. Shu sababli stereotiplar yengish uchun nogironlikni yaxshilab tushunish, insonlarning bilimini oshirish zarur'.

Nogironlik haqida jamiyatda hali ham ko'p noto'g'ri tushunchalar mavjud. Ko'pchilik nogironlarni achinarli, bechora yoki yordamga muhtoj deb o'ylaydi. Aslida esa bu noto'g'ri qarash. Har bir nogironligi bor shaxsning o'ziga xos qobiliyati, kuchli tomoni va imkoniyati bor. To'g'ri sharoit va qo'llab-quvvatlash bo'lsa, ular ham boshqalar kabi jamiyatda faol bo'lishi mumkin. Shu sababli, nogironlikni to'g'ri tushunish, odamlarning bu boradagi bilimini oshirish va stereotiplardan voz kechish juda muhim deb hisoblayman.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jamiyatda nogironlikka bo'lgan stereotiplarni bartaraf etish uchun eng avvalo odamlarning fikrlash tarzini o'zgartirish kerak. Ko'pchilik nogironlikni faqat cheklov yoki ojizlik deb o'ylaydi, aslida esa bu insonning hayotidagi bir holat, xolos. Har bir nogironligi bo'lgan insonlarning o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va hayotga bo'lgan qarashlari bor. Agar ularga teng imkoniyatlar yaratilsa, ular ham jamiyatda faol ishtirok etishi, o'z o'rnini topishi mumkin.

Stereotiplarni yo'qotish uchun odamlar orasida to'g'ri tushuncha shakllantirish, ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni kuchaytirish va ommaviy axborot vositalarida nogironligi bor shaxslarga nisbatan munosabatni targ'ib qilish muhim deb hisoblayman. Jamiyatda har bir insonning qadri bor, nogironlik esa insonni boshqalardan kam qilmaydi. Shu bois, biz ularni tushunish, qo'llab-quvvatlash va teng huquqli a'zo sifatida qabul qilishimiz zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nogironlik - Vikipediya
2. Nogironlik: tushunchalar va ta'riflar
3. Ableism - Vikipediya